



UDK:392.0 (045)

Tohir QURBONOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: tohir-qurbonov1969@mail.ru

QarDU Falsafa va sotsiologiya kafedrasini mudiri, prof. G.Bekmurodova taqrizi asosida

O'ZBEK MILLIY MENTALITETIDA FAN VA ADABIYOTNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada o'zbek milliy mentalitetida fan va adabiyotning o'zni beqiyos ekanligi ilmiy tahlil etilgan bo'lib, inson dunyoqarashi va e'tiqodi, fazilatlar va xislatlari, hayotga munosabati shakllanishiga ta'siri beqiyos ekanligi, chunonchi, fan insonda ilmiy dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirishda har qiluvchi rol o'ynasa, adabiyot esa, uning aqliy, axloqiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, kasbiy, estetik va boshqa fazilatlar va xislatlarining qaror topishi jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazishini ilmiy ifodalaganadi.

Kalit so'zlar: O'zbek milliy mentaliteti, fan va adabiyot, aqliy, axloqiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, kasbiy, estetik fazilatlar va xislatlar, shaxs ma'naviy qiyofasi, "kompyuteromaniya", "telemaniya".

В УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ МЕНТАЛИТЕТЕ РОЛЬ НАУКИ И ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация

В статье научно анализируется несравненная роль науки и литературы в узбекском национальном менталитете, ее влияние на формирование мировоззрения и убеждений человека, добродетелей и качеств, отношения к жизни. Например, наука играет решающую роль в формировании Научное мировоззрение и убеждения человека, а литература играет решающую роль в формировании его интеллектуальных, нравственных, правовых, идейно-политических, трудовых, профессиональных, эстетических и других качеств и качеств, оказывает влияние на процесс принятия решений.

Ключевые слова: Узбекский национальный менталитет, наука и литература, интеллектуальные, нравственные, правовые, идейно-политические, трудовые, профессиональные, эстетические добродетели и качества, духовный облик человека, «компьютеромания», «телемания».

IN THE UZBEK NATIONAL MENTALITY THE ROLE OF SCIENCE AND LITERATURE

Annotation

The article scientifically analyzes the incomparable role of science and literature in the Uzbek national mentality, its influence on the formation of a person's worldview and beliefs, virtues and qualities, attitude to life. For example, science plays a decisive role in the formation of a person's scientific worldview and beliefs, and literature plays a decisive role in the formation of his intellectual, moral, legal, ideological and political, labor, professional, aesthetic and other qualities and qualities, influences the decision-making process.

Key words: Uzbek national mentality, science and literature, intellectual, moral, legal, ideological and political, labor, professional, aesthetic virtues and qualities, the spiritual appearance of a person, "computer mania", "telemania".

Kirish. Mamlakatimizda, milliy mentalitet bilan bog'liq masalalar alohida diqqatga sazovor. Chunki, bir tomondan, u jahonda, mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib borsa, ikkinchi tomondan, ushbu ijtimoiy jarayonlarning o'ziga aks ta'sir ko'rsatadi. O'zbek milliy mentalitetini shakllanishida fan va adabiyotning ta'siri juda katta bo'lib, inson dunyoqarashi va e'tiqodi, fazilatlar va xislatlari, hayotga munosabati shakllanishiga ta'siri beqiyosdir. Chunonchi, fan insonda ilmiy dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirishda har qiluvchi rol o'ynasa, adabiyot esa, uning aqliy, axloqiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, kasbiy, estetik va boshqa fazilatlar va xislatlarining qaror topishi jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilk bor «mentalitet» tushunchasi L.Levi-Bryulning etnologiyaga doir asarida ishlatilgandi[1]. Lekin keyinchalik millat mentaliteti muammolari tarixchilar tomonidan keng tadqiq qilindi. Bu borada ayniqsa «Annallar» deb nom olgan fransuz tarixchilari maktabining vakillari e'tiborli fikrlarni bayon qiladilar. Xususan, tarixiy-kulturologik yondashuv asoschilari bo'lmish M.Blok va L.Fevr, keyinchalik ularning shogirdlari F.Brodel, J.Le Goff, J.Dyubi va boshqalar[2] mentalitetni jamiyatning

moddiy hayoti bilan bog'liq «g'oyibona tafakkur tarkiblari», deb ta'riflaydilar.

Mentallik nazariyasini ishlab chiqishda fransuz strukturalistlari M.Fuko va K.Levi-Strossning hissasi katta bo'ldi[3]. Mentalitetning barqaror elementlariga ko'proq e'tibor bergan fransuz olimlaridan farqli o'laroq, nemis faylasufi F.Graus uning o'zgaruvchanligiga e'tiborni qaratadi[4]. Rus faylasuflari N.A.Berdyaev, S.A.Frank, G.G.Shpet, G.P.Fedotov, N.O.Losskiy, I.A.Ilin va L.P.Karsavinlar mentalitetni "millat ruhi" deb talqin qiladilar[5].

XX asrning 90-yillaridagi ijtimoiy o'zgarishlar MDH mamlakatlarida ijod qilayotgan o'nlab olimlarning e'tiborini ijtimoiy islohotlar bilan milliy mentalitet orasidagi aloqadorlik masalalariga jalb qildi[6]. A.Y.Gurevich, L.N.Pushkarev, L.A.Zelenov, V.G.Tixonov, B.S.Gershunskiy, I.G.Dubov, V.F.Petrenko kabi olimlar "mentalitet" tushunchasini ijtimoiy falsafa va ijtimoiy psixologiyaning boshqa kategoriyalari bilan qiyoslashga urinib ko'rdilar[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Fan ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida ikki ming yildan buyon rivojlanib kelmoqda. Biroq u vujudga kelishi bilanoq moddiy ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsata boshlagani yo'q, albatta.

Ibtidoda fanning yutuqlari empirik xarakterga ega bo'lgani, o'rta asrlar davomida ijtimoiy ishlab chiqarish bo'g'inlari, bosqichlarining bir-biridan ajralganligi fanning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokini cheklab qo'ygan edi. Industrial ishlab chiqarishning vujudga kelishiga fanning ishlab chiqarish jarayonidagi rolini va o'rnini mustahkamladi.

Fanning bunday taraqqiyoti, bir tomondan, uni qudratli ijtimoiy institut, ishlab chiqaruvchi kuchga aylantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan inson turmush tarziga, ongi va faoliyatiga fundamental ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan vosita darajasiga ko'tardi. Biroq, afsuski, bu vositaning ta'siri hamisha ham pozitiv xarakterga ega bo'lmayotir. Fanning har bir kashfiyoti insoniyat uchun muhim bo'lgan bir muammoni kun tartibidan olishga xizmat qilmoqda va shu zahoti yangi, mohiyatan murakkabroq muammoning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Uning inson ma'naviy qiyofasiga ta'siri haqi-da ham shunday deyish mumkin. Chunonchi, bir tomondan, uning ta'siri ostida inson dunyoqarashi gumanizm, farovonlik, erkinlik va shu kabi g'oyalari bilan boyidi. Ikkinchi tomondan esa, fan rivoji shaxs ma'naviy qiyofasini turli ijtimoiy illatlar girdobiga tashladi.

Fan taraqqiyoti dasturlavvaldanoq inson jismoniy mehnatini yengillashtirishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu borada u jiddiy yutuqlarga erishdi ham. Masalan, uning sharofati bilan sanoat ishlab chiqarishida turli mashinalar, ekskavatorlar, kranlar, dastgohlar qo'llanila boshlandi. Qishloq xo'jaligiga son-sanoqsiz yig'im-terim mashinalari, sug'oruvchi moslamalar, boshqa texnika vositalari kirib keldi. Maishiy turmush changyutlarlar, sovutgichlar, televizorlar, kompyuterlar evaziga birmuncha yengillashti. Natijada aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi mutanosiblik bir qadar o'zgardi. Biroq ushbu muvaffaqiyatlar inson turmushini tashvishga to'ldirdi, ruhiy dunyosining o'zgarishiga olib keldi.

Fan taraqqiyotining yana bir ezgu maqsadi insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish edi. Ilm o'z yutuqlari bilan ochlarni to'ydirishi, yupunlarni kiydirishi, uysizlarga boshpana berishi lozim edi. Biroq natijalar o'zgacharoq chiqdi: bugungi kunda fan sayyoramizdagi barcha kishilarning kundalik ehtiyojini qondirish imkoniga ega bo'lgan bir paytda shaxs ma'naviy qiyofasida ochko'zlik va xudbinlik ildiz otib bormoqda. Fan taraqqiyoti sharofati bilan moddiy boyliklarning oshib borishi, mahsulot tur va shakllaridagi turli-tumalik, rang-baranglik hasad deb atalmish illatning yanada yorqinroq yuz oshishiga, unga yo'liqqan kishilar sonining oshishiga sabab bo'ldi.

Fan taraqqiyoti insonning mashinalarga qaramligini oshirmoqda. Aytaylik, atigi o'n besh yil muqaddam odam bolasini har narsa tashvishga solgan bo'lishi mumkin, biroq mobilnigi yoxud kompyuteri yo'qligi mutlaqo bezovta qilmagan. Bugun esa ushbu vositalarsiz hayotini tasavvur qila olmaydigan kishilar soni oshib bormoqda. Psixologlar tilida "kompyuteromaniya", "telemaniya", mobilnikka qaramlik kabi termin-larning yuzaga kelishi ham shundan.

Fanning jamiyat hayoti, inson turmush tarzi, ongi va faoliyatiga ta'sirida pozitivlik elementlari salmoqliroq ekanligiga amin bo'lamiz. Harqalay, fanning sharofati bilan jamiyat taraqqiyoti jadallasha bordi, inson turmush tarzi benihoya yengillashti, uning ongi va faoliyati turli xato va yanglishishlardan xalos bo'ldi. Bugungi kunda fan jamiyat taraqqiyoti va shaxs ma'naviy qiyofasiga jiddiy ta'sir o'tkazishga qodir vosita sifatida qolmoqda. Ayni paytda fanning ijtimoiy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini oshirish, uning tarbiyaviy qudratini takomillashtirish zaruriyati ham mavjud.

Badiiy adabiyot o'ziga xos tarkibga va uzoq tarixga ega bo'lgan ifodalash san'ati shaklidir. Barcha zamonlarda badiiy adabiyot asarlari, eng avvalo, inson ruhiy olamini ifodalab beruvchi manba vazifasini o'tadi. Inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos xususiyatlari, undagi hissiylik va aqliylikning asosiy komponentlari, his-tuyg'ulari, aql-zakovati, qadriyatlar, tajribalarining shakllanishi jarayoni, kayfiyatlari va kechinmalarining qaror topishi mexanizmlari, onglik va ongsizlikning namoyon bo'lish qonuniyatlari – bularning barchasi adiblar va shoirlarning ko'plab asarlarida atroflicha tahlil qilib berildi. Bu asarlar, bir tomondan, kitobxonni inson ruhiyatining sir-sinoatlari bilan tanishtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unga katta tarbiyaviy ta'sir o'tkazib keldi.

Asrlar davomida adabiyot ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ko'rsatishda muvaffaqiyatli ishtirok etib keldi. Masa-lan, o'tgan asrning 30-yillarida G'arb olamida inson ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar rivojlana boshladi. Bunga javoban o'sha yillardagi G'arb adabiyotida XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, insoniy qiyofasini yo'qotishi yetakchi mavzuga aylandi[8]. Adabiyotning sa'y-harakatlari sharofati bilan G'arbnig yetakchi siyosatdonlari, jamoat arboblari mazkur muammoning mohiyatini tushunib yetdilar. Natijada inson dahlsizligi, haq-huquqlari va erkinligini himoyalash, uning munosib turmushini ta'minlashga oid ko'plab huquqiy hujjatlar dunyoga keldi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda adabiyot borasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zotan, milliy adabiyotimiz "sotsialistik realizm" nomini olgan soxta uslubiyotdan xalos bo'ldi. Uzoq yillar senzura ta'qiqi ostida bo'lgan asarlar jamoatchilik hukmiga havola etildi. Yigirmanchi asrda jahon badiiy tafakkurida alohida o'rin egallagan modernizm, postmodernizm, avangardizm kabi uslublar o'zbek adabiyoti va san'ati namoyondalari tomonidan o'zlashtirila boshlandi. Oqibatda adabiyotning shaxs ma'naviy qiyofasiga ijobiy ta'sirini ta'minlash uchun yangi istiqbollar ochildi.

Biroq yangi asr arafasida adabiyot olamida mutlaqo yangi tendensiyalar yuzaga kelayotganiga ham ko'z yumib bo'lmaydi. Mazkur tendensiyalarning eng xatarlisi adabiyotning shaxs ma'naviy olamini shakllantiruvchi vositadan uning huzur-halovatini ta'minlaydigan, bo'sh vaqtini ko'ngilocharlik bilan o'tkazishga yordam beradigan vositaga aylanayotganidir. Buning asosiy sababi iste'molchilik kayfiyatining adabiyot olamiga ham kirib kelgani bilan bog'liq. Moddiy ne'matlarni shunchaki iste'mol qilishga odatlangan hozirgi zamon kishisi endi badiiy adabiyot mahsullariga ham shunday munosabatda bo'layotir. Bunday ehtiyojga javoban badiiy asarlar "konveyer" usulida yaratilayotir. Ulardagi primitiv syujetlar, notavon qahramonlar, tabiiyki, inson ma'naviy dunyosining boyishiga xizmat qilmayapti.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek milliy mentaliteti shakllanishida fan va adabiyot muhim vosita rolini o'ynaydi. Zotan, fan insonda ilmiy dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirishda har qiluvchi rol o'ynasa, tasviriy san'at va adabiyot uning aqliy, axloqiy, huquqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, kasbiy, estetik va boshqa fazilatlarini va xislatlarining qaror topishi jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Fan va adabiyot ijtimoiy ahamiyati va jamiyatdagi pozitsiyalarining mustahkamlanishi, ular bilan bog'liq dolzarb muammolarning sistemali tarzda bartaraf etilishi, ijodkor ijtimoiy maqomining oshirilishi mazkur vositalar tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABYOTLAR

1. Леви-Брюль Л. Сверхъестественное в первобытном мышлении. М., 1994.
2. Блок М. Апология истории.- М., 1988; Февр Л. Бои за историю.- М., 1991.

3. Фуко М. Слова и вещи: археология гуманитарных наук.- СПб., 1994; Леви-Стросс К. Первобытное мышление.- М., 1994.
4. Mentalitäten im mittelalter: Methodische und inhaltlich problem.- Konstanz, 1987. Ф. Грауснинг менталитети хақида қаранг: Арнаутова Ю.Е. Ментальность в Средние века: методологические и содержательные проблемы.- М., 1994.
5. Шпет Г.Г. Введение в этническую психологию.- СПб., 1996; Бердяев Н.А. Судьба России.- М., 1990; Философия свободного духа.- М., 1994; Франк С.Л. Духовные основы общества.- М., 1992; Федотов Г. П. Письма о русской культуре // Русская идея.- М., 1992;
6. Лосский Н.О. Характер русского народа.- М., 1990; Ильин И.А. Наши задачи: историческая судьба и будущее России.- М., 1992.
7. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Америка в сравнении с Россией и славянством. М., 1997; Ерасов Б.С. Цивилизационная теория и евразийские исследования // Цивилизация и культуры. Научный альманах. Вып. 3. Россия и Восток: геополитика и цивилизационные отношения. М., 1996;.
8. Ильин В.В., Ахизер А.С. Российская государственность: истоки, традиции, перспективы. М., 1997;
9. Лурье СВ. Восприятие народом осваиваемость теории // ОНС. 1998, № 5; Лурье СВ. Национализм, этничность, культура. Категории науки и историческая практика // ОНС. 1999, №4;
10. Митрохин С.С. Политика государства и ценности общества // Полис. 1997, №1;
11. Поляков А.В. Методология исследования российской модернизации // Полис. 1997. №3.
12. Гершунский Б.С. Менталитет и образование.- М., 1998; Гурвич А.Я. От истории ментальностей к историческому синтезу// Споры о главном.- М., 1993;
13. Зеленое Л.А. Русский менталитет // Культура и мир: Восток-Запад.- Нижний Новгород, 1995;
14. Ментальность россиян. / Под общ. ред. И.Г. Дубова. М., 1997;
15. Пушкирев Л.Н. Что такое менталитет// Отечественная история.-1995.- №5;
16. Петренко В.Ф. Психосемантика сознания. М., 1988.
17. Xolbekov M. Modern adabiyoti: tadrij va talqin.// Tafakkur.- 2010.- №3.- 79-b.